

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

JIZZAX DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI



KIYIMLARNI KOSTRUKSIYALASH

Fanining o'quv dasturi

Bilim sohasi:	100000 – Ta'lim
Ta'lim sohasi:	110000 – Ta'lim
Ta'lim yo'nalishi:	60210400 Dizayn (libos va gazlamalar)

JIZZAX 2022

Fan/modul kodi 351KKM06		O'quv yili 2022-2023	Semestr 3	ECTS kreditlar: 6
Fan/modul turi Majburiy		Ta'lim tili O'zbek,		Xaftadagi dars soatlar: 4
1	Fanning nomi	Auditoriya mashg'ulotlari (soat)	Mustaqil talim (soat)	Jami yuklama (soatlar)
	Kiyimni konstruksiyalash	60 Ma'ruza: 20 Amaliy: 40	60	120
2	<p style="text-align: center;">I. Fanning mazmuni</p> <p>Fani o'qitishning mazmuni: Yaratilayotgan libos model obrazi bilan mo'ljallangan vazifasiga mosligi (yani, estitet g'oyaviy vazifalari) orasidagi tafovutni kamaytirish, yangilik va utilitar konstruksiyaga qo'llay olishni bilish, bu yo'nalishda belgilangan nazariy bilimlarini shakllantirishdan iboratdir. Iste'molchilarning kiyimga bo'lgan talablarini qondirish yo'lidagi dizaynerlar oldidagi masalalarni yechish. Kiyim loyihalashtirishning progressiv usullarini o'rganish va ularni tikuv buyumlari ishlab chiqaruvchi O'zbekiston korxonalarida tadbiq etish. Kiyimni konstruksiyalash jarayonlarini tashqil etish va yo'lga qo'yishni mukammallashtirish yo'nalishlarini o'rganish.</p> <p>Fanning vazifalari: Turli vazifalarga mo'ljallangan va turlarining shakl va konstruksiyalarini yaratish xar xil kiyim yo'nalishlarni o'rganish va ularning taxlili asosida eng optimal va berilgan ilmiy texnik topshiriqni qondira oladigan variantni tanlashni bilishni o'rgatish.</p> <p style="text-align: center;">II. Asosiy nazariy qism (ma'ruza mashg'ulotlari)</p> <p style="text-align: center;">Fanning tarkibiga quyidagi mavzular kiradi.</p> <p style="text-align: center;">1-mavzu Kiyim va uning sinflanishi haqida asosiy ma'lumotlar.</p> <p style="text-align: center;">Kiyim tushunchasiga ta'rif (2 soat).</p> <p>Kiyimga odam tanasini butunlay o'rab turishi yoki qisman o'rab turuvchi, buyumlar yig'indisi qobiq sifatida nazar solish. Zamonaviy kiyimning sinflanishi Kiyim yaratishdagi unga qo'yiladigan talablarni taxlil qilishni o'rganish. Turli maqsadlarda mo'ljallangan kiyimlarga qo'yiladigan talblar.</p>			

2 mavzu. Kiyimning siluet chiziqlari, konstruktiv chiziqlari, konstruktiv dekorativ hamda dekorativ chiziqlari (2 soat).

Kiyimga odam tanasini butunlay yoki qisman o'rab turuvchi buyumlar yigindisi qobik sifatida nazar solish. Kiyim tashqi ko'rinishi shakl va siluet bilan xarakterlanishi. Katta yoki kichik xajmli kiyimlar.

Kiyim shaklini chegaralovchi chiziqlar - siluet chiziqlari.

3-mavzu. Bichim turlarini o'rganish. Belda turuvchi va yelkada yotuvchi kiyimlar (2 soat).

Belda turuvchi kiyimlar - bel chizigida maxkamlanib, buksalar sirtiga tayanuvchi kiyimlar . Bunday kiyim odam gavdasining quyi qismi va oyoqlarni qisman yoki to'liq qoplab turadi. Yelkada turuvchi kiyimlar - yelkalarda ushlanib va yelka kamariga tayanib turuvchi kiyimlar.

4-mavzu. Antropometriya tushunchasi. Odam gavdasidagi antropometrik nuqtalarni o'rganish (2 soat).

Tana proporsiyasining qo'l, oyoq, yelka kengligi, chanoq, tana uzunligiga qarab ta'riflanishi. Tana proporsiyasi: Dolixomorf, mezamorf va braximorflil asosiy turlarga bo'linishi. Tana proporsiyasining yosh o'zgarishiga ta'siri. Odam gavdasida asosiy antropometrik nuqtalar xolatini aniqlashni o'rganish.

5-mavzu. Gavda O'lchamlarini o'lchash tizimini o'rganish (2soat).

Gavda o'lchamlari - kiyim konstruksiyasini tuzish uchun kerak bo'ladigan birlamchi dastlabki ma'lumot. Tipaviy va individual gavda o'lchamlari. Gavda o'lchamlari - ma'lum qoida asosida o'lchangan antropometrik nuqtalar orasidagi masofalar, oraliqlar, aylanalar va x.k. Asosiy gavda o'lchamlarini o'lchash qoidalari bilan tanishish.

6 mavzu. Konstruksiyalashdagi qo'shimchalar (2 soat).

Kiyim konstruksiyalash uchun kerak bo'ladigan gavda o'lchamlarini olish; ularni belgilashdagi shartli belgilar; qo'shimcha tushunchasi; texnik- zaruriy qo'shimcha; konstruktiv-dekorativ qo'shimcha; turli assortimentdagi kiyimlarni konstruksiyalashda xisobga olinadigan qo'shimchalarni tanlash; tanlangan qo'shimchalarning miqdorini taxlilini qilish.

7 mavzu. Kiyim modelini taxlil qilish. Texnik eskiz chizishni o'rganish (2 soat).

Modelni o'rganib, taxlil qilish jarayonining ketma-ketligini O'rganish. Kiyim modeli tashqi ko'rinishining tavsifini yozma yoki ogzaki keltirishni o'rganish. Texnik eskiz chizish usullari va qoidalari bilan tanishish va bu kunikmalarni amalda qo'llash. Texnik eskiz yoki texnik rasm kiyim ishlab chiqarish sohasida ishlayotgan dizayner uchun muxim ahamiyatga ega.

8-mavzu. Bazis to`ri (setka) tushunchasi (2 soat).

Belda turuvchi va yelkada yotuvchi kiyimlar ta`rifi, bazis tur tushunchasi, ikki chokli to`g`ri yubka asos chizmasini xisoblab tuzish, ikki chokli yubka o`zak chizmasi asosida murakkab ko`rinishdagi detallarning shaklini xosil qilish, yelkada turuvchi kiyimlar, o`tqazma yengli yelkada turuvchi kiyimlar konstruktsiya asosini qurish.

9-mavzu. Belda turuvchi kiyimlar, ularning konstruktsiya asosini qurish (2 soat).

Belda turuvchi kiyimlar - bel chizigida maxkamlanib, buksalar sirtiga tayanuvchi kiyimlar. Belda turuvchi kiyimlarga yubkalar, shimlar va yubka-shimlar kiradi.

10-mavzu. Yelkada turuvchi kiyimlar, ularning konstruktsiyaasosini qurish (2 soat).

Yelkada turuvchi kiyimlar - yelkalarda ushlanib va «yelka kamariga tayanib turuvchi kiyimlar. O`tqazma yengli ayollar ko`ylagi asos «chizmasini tuzish uchun kerak bo`ladigan gavda o`lchamlari hamda konstruktiv qo`shimchalarni tanlash va ularning qiymatini aniqlash. Konstruktsiya asosini qurish ketma- ketligini aniqlashtirish.

III. Amaliy mashg`ulotlar bo`yicha ko`rsatma va tavsiyalar

Amaliy mashgulotlarda talabalar berilgan nazariy bidimlar asosida mavzularga oid turli konstruktsiya asoslarini tuzish yo`llari o`rganadilar, shuning uchun amaliy mashg`ulotlar konstruksiyalash uchun mos qurilmalar, o`quv manekenlar va boshqa maxsus asboblilar bilan jixozlangan aditoriyada bir akademik guruxga bir o`qituvchi tomonidan o`tqazilishi lozim. Mashg`ulotlar faol va interfaol usullar yordamida o`tilishi, mos ravishda munosib pedagogik va axborot texnologiyalar qo`llanilishi maqsadga muvofiq.

Amaliy mashg`ulotlar uchun quyidagi mavzular tavsiya etiladi`

1-mavzu: Kiyim vazifasidan kelib chiqib unga qo`yiladigan talablarni shakllantirish (2 soat).

Reja:

1. Kiyimning vazifalari
2. Kiyim yaratishdagi unga qo`yiladigan talablarni taxlil qilishni o`rganish.
3. Standartlashtirish.

2-amaliy mashg'ulot: Kiyim modelining silueti, konstruktiv, konstruktiv-dekorativ va dekorativ chiziqlari joylashuvi, ularning shakli haqida ma'lumot berishni o'rganish (2 soat).

Reja:

1. Topshiriq bo'yicha berilgan 5 ta yoki undan ortiq kiyim modelining
2. silueti, konstruktiv, konstruktiv-dekorativ va dekorativ chiziqlari
3. joylashuvi, ularning shakli haqida ma'lumot berishni o'rganish.

3-amaliy mashg'ulot: Modelni o'rganib, taxlil qilish jarayonining ketma-ketligini o'rganish (2 soat).

Reja:

1. Kiyim modeli tashqi ko'rinishining tavsifini yozma yoki ogzaki keltirishni o'rganish.
2. Texnik eskiz chizish usullari va qoidalari bilan tanishish va bu kunikmalarni amalda qo'llash.
3. Topshiriq bo'yicha kiyim taxlilining ketma-ketligiga rioya etib, modalar jurnalida keltirilgan modelning tashqi ko'rinishi tavsifini yozma ravishda keltirish va model uch yoqlama ko'rinishining texnik eskizda aks ettirish.

4-amaliy mashg'ulot: Odam gavdasidagi antropometrik nuqtalarni o'rganish (2 soat).

Reja:

1. Odam gavdasida asosiy antropometrik nuqtalar xolatini aniqlashni o'rganish.
2. Gavda o'lchamlarining GOSTi bilan ishlashni o'rganish.

5-amaliy mashg'ulot: Odam gavdasidan o'lchov olishni o'rganish. Asosiy gavda o'lchamlarini o'lchash qoidalari bilan tanishish (2 soat).

Reja:

1. Ma'lum qoidalarga rioya qilib, tegishli tartibda gavdadan o'lchov olish.
2. O'lchov nomini qoidaga mos shartli qisqartirib yozishni o'rganish.
3. Konstruksiyalash uchun kerak bo'ladigan qo'shimchalarni tanlashni o'rganish.

6-amaliy mashg'ulot: Ikki chokli yubkaning konstruksiya asosini qurish (4 soat).

Reja:

1. Ikki chokli to'g'ri yubka asos chizmasini tuzish uchun kerak bo'ladigan gavda o'lchamlari xamda konstruktiv qo'shimchalarni tanlash va ularning qiymatini aniqlash. 1:1 masshtabda
2. to'g'ri yubka asos chizmasini qurish.

**7-amaliy mashg'ulot: Konussimon yubkaning
konstruksiyasini qurish (2 soat).**

Reja:

1. Konussimon yubka asos chizmasini tuzish uchun kerak bo'ladigan gavda o'lchamlari hamda konstruktiv qo'shimchalar.
2. Tanlash kiyim va ularning qiymatini aniqlash.
3. 1:1 masshtabda konussimon yubka asos chizmasini qurish.

**8-amaliy mashg'ulot: Bo'laklardan (klinlardan) iborat yubkaning
konstruksiyasini qurish. (2 soat)**

Reja:

1. Yubka asos chizmasini tuzish uchun kerak bo'ladigan gavda o'lchamlari hamda konstruktiv qo'shimchalarni tanlash va ularning qiymatini aniqlash.
2. 1:1 masshtabda bo'laklardan (klinlardan) iborat yubka asos chizmasini qurish.

**9-amaliy mashg'ulot: Yubka-shimning
konstruksiyasini qurish (2 soat).**

Reja:

1. Yubka-shim asos chizmasini tuzish.
2. Yubka shim uchun kerak bo'ladigan gavda o'lchamlari hamda konstruktiv qo'shimchalarni tanlash va ularning qiymatini aniqlash.
3. 1:1 masshtabda yubka-shim asos chizmasini qurish.

**10-amaliy mashg'ulot: Ayollar shimi asos
chizmasini xisoblab tuzish (4 soat).**

Reja:

1. Shim asos chizmasini chizish.
2. Shim andozasini qurish uchun kerak bo'ladigan gavda o'lchamlari hamda konstruktiv qo'shimchalarni tanlash va ularning qiymatini aniqlash.
3. 1:1 masshtabda shim asos chizmasini qurish.

**11-amaliy mashg'ulot: Yelkada turuvchi kiyimlar,
ularning konstruksiya asosini qurish (4 soat).**

Reja:

1. Bazis turi.
2. Yelka chizigi, yoqa umizi chiziqlarin o'tqazish.
3. Yelkada turuvchi kiyimlarda yeng o'mizi ko'krak vitachkasi, bel vitachkalarini qurish.

12-amaliy mashg'ulot: Konstruktiv nuqsonlarni bartaraf etishni o'rganish (2 soat).

Reja:

1. Taklif etilgan model eskizini chizish.
2. Kiyim modellarining asosiy, ishchi, xosila va yordamchi andazalarini tuzish va ularni spetsifikatsiyalash.
3. Konstruktiv nuqsonlarni bartaraf etish.

13-amaliy mashg'ulot: Andazalar gradatsiyasini bajarish (4soat).

Reja:

1. Andoza turlari va ularni razmirlar bo'yicha ko'paytirish.
2. Andozalarni ko'paytirish texnologiyalari va usullarini o'rganish.
3. Andazalar gradatsiyasini mazsus dasturlarda bajarish.

14- amaliy mashg'ulot: Antropometriya tushunchasi (2 soat).

Reja:

1. Odam gavdasidagi antropometrik nuqtalarni o'rganish.
2. Tana proporsiyasining qo'l, oyoq, yelka kengligi, chanoq, tana uzunligiga qarab ta'riflanishi.
3. Tana praporsiyasi: dolixomorf, mezamorf va braximorfli asosiy turlarga bo'linishi. Tana praporsiyasining yosh uzgarishiga ta'siri.

15-mavzu. Gavda O'lchamlarini o'lchash tizimini o'rganish.(2soat)

Reja:

1. Gavda o'lchamlari - kiyim konstruksiyasini tuzish uchun kerak bo'ladigan birlamchi dastlabki ma'lumot.
2. Tipaviy va individual gavda o'lchamlari.
3. Gavda o'lchamlari - ma'lum qoida asosida o'lchangan antropometrik nuqtalar orasidagi masofalar, oraliqlar, aylanalar va x.k.

16-amaliy mashg'ulot: Ikki chokli yubkaning konstruksiya asosini qurish (6 soat).

Reja:

1. Ikki chokli to'g'ri yubka asos chizmasini tuzish uchun kerak bo'ladigan gavda o'lchamlarini o'rganish.
2. Konstruktiv qo'shimchalarni tanlash va ularning qiymatini aniqlash.
3. 1:1 masshtabda to'g'ri yubka asos chizmasini qurish.

IV. Mustaqil ta'lim va mustaqil ishlarni o'zlashtirish tartibi.

Mustaqil o'zlashtirilgan mavzular bo'yicha talabalar tomonidan chizmalarni bajarish, referatlar tayyorlash va uni taqdimot qilish tavsiya etiladi. Tanlangan mavzu yuzasidan talabalar konstruktiv o'lchamlar uchun kerak bo'ladigan formulalarni o'rganish va andozalarni tog'ri joylashtirishni o'rganib namunalarni bajarishadi.

Mustaqil ta'lim uchun tavsiya etiladigan mavzular:

1. Topshiriq bo'yicha berilgan kiyim modelining vazifasini asoslash.
2. Kiyim modelini taxlil qilish. Berilgan topshiriq bo'yicha modellarning texnik eskizlarini qoidaga asosan chizish hamda tashqi ko'rinishiga tavsif berish.
3. Turli tipdagi gavda o'lchamlaridan o'lchov olish va ularning tipaviy figura o'lchovlari bilan solishtirma taxlilini bajarish.
4. Turli materiallardan, turli siluetli xamda turli vazifalarni bajaruvchi kiyimlar uchun qo'shimchalarni tanlash.
5. Choklardan iborat (klinlarining soni turlicha bo'lgan yubkalar) va konussimon (etagi turlicha kenglikdagi konussimon) yubkalar asos chizmasini xisoblab tuzish.
6. Ayollar ustki kiyimining konstruksiyasini qurish.
7. Model bo'yicha detallarni texnik modellash yo'li bilan xosil qilish. Maketlarni bajarish.
8. Yeng o'mizi turli shakl va chuqurlikda bo'lgan kiyim modellari uchun chizmalarini qurish va maketlarni bajarish.
9. Maketlarni bajarish jarayonida aniqlangan nuqsonlarni bartaraf etish.
10. Andazalarini tayyorlash va rasmiylashtirish qoidalarini amaliy qo'llash.
11. Konstruksiyalashning turli metodlarining solishtirma taxlilini qilish.
12. Gavda O'lchamlarini o'lchash tizimini o'rganish.
13. Yeng o'mizi turli shakl va chuqurlikda bo'lgan kiyimlar asos chizmasini va ularga mos yeng chizmalarini qurish prinsiplari.
14. Erkaklar kiyimini konstruksiyalash prinsiplari.
15. Bolalar kiyimini konstruksiyalash prinsiplari.
16. Trikotaj kiyimlarini konstruksiyalash prinsiplari.
17. Konstruksiyalashning turli metodlari bilan tanishish.
18. Konstruksiyalashning turli metodlarining solishtirma taxlilini qilish
19. Ustki kiyim detallari andazalarining to'plamini xosil qiluvchi andazalarni bajarish. Texnik xujjatlarni rasminlashtirishni o'rganish.
20. Detallar spetsifikatsiyasi.
21. Yoqa konstruksiyalarni tuzish.

**V. Fan o`qitilishining natijalari (shakllanadigan kompetensiyalari)
Fan bo`yicha talabalarning bilim, ko`nikma va malakalariga quyidagi
talablar qo`yiladi.**

Talaba: tikuv buyumlarini konstruksiyalashning asosiy muammolari va tamoyillari;

-fan rivojlanishining asosiy kospektlari va yo`nalishlari haqida tasavvurga ega bo`lishi.

-tikuv buyumlarini konstruksiyalashning nazariy asoslarini;

-antropometriya tizimi asoslarini; inson tanasining tuzilishi va o`lchov olish tizimlarini;

konstruksiyalashning zamonaviy metodlarini;

konstruksiya asosini tuzish uchun kerak bo`ladigan dastlabki ma`lumotlarni jamlashni va ulardan to`g`ri foydalanishni;

murakkab bichim hamda har xil shakl va hajmdagi kiyimlarning konstruktiv tuzilishini taxlil qilishni; konstruksiyalashning barcha bosqichlarini; turli gavda tuzilishlari uchun muljallangan konstruksiyalarni tuzishni; murakkab bichim hamda har xil shakl va hajmdagi kiyim detallarining konstruksiyalarini va shakllarini kosil qilish qoidalarini;

kiyim paketini xosil qiluvchi andazalar majmuini yigishni *bilishi va ulardan foydalana olishi*; libos modeli texnik eskizining uch yoklama ko`rinishini chizish va uni taxlil etish; turli assortiment, bichim va shakldagi kiyim detallarining konstruksiyasini tuzish hamda ularning maketini bajarish; zamonaviy konstruksiyalash usullarinn qo`llash *kunikmalariga ega bo`lishi kerak.*

VI Ta`lim texnologiyalari va metodlari:

- ma`ruzalar;
- interfaol keys-stadilar;
- guruxlarda ishlash;
- takdimotlarni qilish;
- individual loyixalar;
- jamoa bulib ishlash va ximoya qilish uchun loyixalar.

VII. Kreditlarni olish uchun talablar:

Fanga oid nazariy va uslubiy tushunchalarni to'la o'zlashtirish, taxlil natijalarini to'g'ri aks ettira olish, o'rganilayotgan jarayonlar haqida mustaqil mushohada yuritish va joriy, oraliq nazorat shakllarida berilgan vazifa va topshiriqlarni bajarish, yakuniy nazorat bo'yicha konstruksiyalashga oid chizmalarni topshirish va uni asoslash.

Joriy nazorat. Joriy nazorat semestr davomida seminar mashg'ulotlariga ajratilgan soatlar (juftlik) dan kelib chiqib umumiy 30 ball bilan baholanadi.

Jami seminar mashg'ulotlari bo'yicha o'zlashtirish natijalari 100 ballik tizimda 30 ball bilan baholanadi.

Oraliq nazoratlar. Oraliq nazoratlar semestr davomida ma'ruza mashg'ulotlari o'quv soatidan kelib chiqqan holda o'tkaziladi. Oraliq nazorat 100 ballik tizimda 20 ball bilan baholanadi. Oraliq nazorat ishi tarkibida mustaqil ta'lim topshirig'i kiradi.

Oraliq va joriy nazorat uchun ajratilgan ballning 60% ini to'plagan talabalarga yakuniy nazorat topshirishga ruxsat beriladi.

Yakuniy nazorat yozma yoki amaliy shaklida o'tkaziladi. Talabanning yakuniy nazoratdagi o'zlashtirishi 100 ballik tizimda 50 ball bilan baholanadi va yakuniy nazorat uchun ajratilgan ballning 60% ini to'plagan talabalar fanni o'zlashtirgan hisoblanadi.

Asosiy va qo'shimcha axborot manbalari

Asosiy adabiyotlar

1. Kamilova X. X., Xamrayeva N.K. "Tikuv buyumlarini konstruksiyalash": oliy o'quv yurtlari uchun darslik.. - T.: Cho'lpon nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2011.-400 b.
2. Babaeva P.X. "Amaliy antropologiya", Toshkent, 2010 y.
3. "Платья и блузки: конструирование". Система кроя "М. Мюллер и сын". Москва, Издателский дом "ЕДИПРЕСС-КОНЛИГА", 2007г.
4. "Конструирование жакетов и пальто". Система кроя. М. Мюллер и сын". Москва, Издателский дом "ЕДИПРЕСС-КОНЛИГА", 2008г.
5. Winfred Aldrich. "Metric Pattern cutting for Women's Wear", fifth edidtion, Blackwell Publishing, UK, 2008 y.
6. Кирюхин С.М., Шустов Ю.С. Текстильное материаловедение. Москва «Колосс», 2011.

Qo`shimcha adabiyotlar

1. "Моделирование". Система кроя "М. Мюллер и сын". Москва, Издательский дом "ЕДИПРЕСС-КОНЛИГА", 2008 г.
2. Хернандез, Ниина. "Таилоринг тхе уникае фигуре". Готеборг :Унив., Инст, фор хушаллсветенскап, 2000. Департмент оф Хоме Есономисс, 138 с.
3. Барчаи. "Анатомия для художников". Москва, "Легкая индустрия", 2001 г.
4. Бердник Т.О., Неклюдова Т.П. "Дизайн костюма". Ростов-на-Дону, "Феникс", 2000. - 448с
5. Дунаевская Т.Н., Коблякова Е.Б., Ивлева Г.С. "Размерная типология населения с основами анатомии и морфологии человека". Москва, 2001г.
6. Жак Лин. "Техника кроя". Пер. с франс. Клепсова А.Д. и Клепсовой З.И. - 5-е изд. - Ижевск: Удмуртия, 1991. - 96 с.: илл.
7. Р.В. Ивлева, А.И. Мартынова. "Градация лекал", МГУДТ, 2006 й.
8. Синелников Т. "Атлас анатомии человека". Москва, 2001 г. "Легкая индустрия".
9. Уинифред Алдриж. "Мужская одежда. Английский метод конструирования и моделирования". Москва, Издательский дом "ЕДИПРЕСС- КОНЛИГА", 2009 г.
10. "М.Мюллер и сын. Децкая одежда. Конструирование". Москва, Издательский дом "ЕДИПРЕСС-КОНЛИГА", 2008 г.
11. Фернандо Бурго. "11 моделиссимо сарториале". Институте ди
12. Мода Бурго, 2005 й
13. СХершнева Л.П. "Конструирование женских платев", Москва. 1991
14. "Atele", "Burda moden" jurnallari.

Internet saytlari:

www.Zivonet.uz
www.textile-press.ru
www.textilegroup.ru 1
www.wellconstruction.ru f
www.modanews.ru
www.liveinternet.ru

Fanning o`quv dasturi O`quv-uslubiy JDPU kengashning 2022 yil 16-avgustdagi 1-sonli bayonnomasi bilan muhokama qilingan va tasdiqlangan.

Fan/modul uchun ma'sullar:

A.X. G'ofurova

JDPU Texnologik ta'lim va tasviriy san'at fanlari kafedrası stajor o'qtuvchisi

Taqrizchilar:

D. Kazakova.

Jizzax politexnika instituti To'qimachilik mahsulotlarini qayta ishlash kafedrası, t.f.f.d (Phd)

T.J. Ismoilov

Texnologik ta'lim va tasviriy san'at fanlari kafedrası dotsenti.